

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03.05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNOV MUHAMMADYUSUB ALISHER O‘G‘LI

**ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ASARI INGLIZCHA
TARJIMALARIDA NUMERATIV VA O‘LCHOV BIRLIKLARINING
LINGVOKULTUROLOGIK VA LINGVOPRAGMATIK TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological Sciences**

Tursunov Muhammadyusub Alisher o‘g‘li

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari inglizcha tarjimalarida numerativ va o‘lchov birliklarining lingvokulturologik va lingvopragmatik tadqiqi..... 3

Турсунов Мухаммадюзуб Алишер угли

Лингвокультурологическое и лингвопрагматическое исследование нумеративных и измерительных единиц в английских переводах произведения «Минувшие дни» Абдуллы Кадыри 25

Tursunov Muhammadyusub Alisher ugli

The linguocultural and linguopragmatic study of numerative and measurement units in English translations of Abdulla Qodiriy’s novel “Days by gone” 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03.05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNOV MUHAMMADYUSUB ALISHER O‘G‘LI

**ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ASARI INGLIZCHA
TARJIMALARIDA NUMERATIV VA O‘LCHOV BIRLIKLARINING
LINGVOKULTUROLOGIK VA LINGVOPRAGMATIK TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarjimashunoslik sohasida madaniyat ko‘prigi deb nom olgan badiiy tarjimani haqiqiy so‘z san‘ati darajasiga ko‘tarilishida mutarjimlarning xizmati bebaho. Zero badiiy asarlar tarjimasi orqali turli xalqlar bir-birlarining madaniyati, territorial iqlim sharoiti, urf-odatlarini, yashash tarzlari, tarixi va yana bir qator o‘ziga xosliklar bilan g‘oyibdan tanishadilar. Qolaversa, turli xalqlar adabiyoti o‘zaro muloqotga kirishganda, adabiy ta’sir jarayonlari vujudga keladi va natijada bir-birini boyitadi. Zero, ma’lum bir xalqlar adabiyotida paydo bo‘lgan adabiy oqimlarning keyinchalik o‘zga xalqlar adabiy jarayonlariga ta’siri hech kimga sir emas. Adabiyotlararo ta’sirning eng asosiy vositalaridan biri esa, shubhasiz, badiiy tarjimada namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, badiiy asarlar tarjimasining lingvistik tahlilini amalga oshirish, tarjimalarning madaniy va pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish tarjimashunoslikda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tarjimashunosligining nazariy-uslubiy muammolarini hal etishda ayrim xalqlar milliy adabiyotining avangard namunalarini ularning xorijiy tillarga tarjima namunalari bilan solishtirish va shu asosda ilmiy-nazariy xulosalar olish zarurati tug‘ilmoqda. Mamlakatimizda hukumatimiz tomonidan ilm-fanga katta e’tibor qaratilayotgani natijasi o‘laroq, olib borilayotgan islohotlar tarjimashunoslik fani oldiga ham ana shunday ulkan vazifalarni qo‘ymoqda. Binobarin, turli sohalar bo‘yicha o‘zbek tilida yaratilgan asarlar dunyoning ko‘plab tillariga o‘girila boshlagani va bu jarayonning keyingi yillarda yanada jadallashib ketishi boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalarning kengayishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugun mamlakatimizda barcha sohalarida jadal islohotlar olib borilayotgani barchamizga ma’lum. Xususan, ilm-fan sohasida ham arzigulik ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, “Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo‘yicha ilmiy ishlar olib borish, til o‘rgatish metodologiyasini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanishi ilm-fan va texnika sohalarining so‘ngi yutuqlaridan mamlakatimiz yoshlarini boxabar etishda adekvat tarjimalarni amalga oshirish va buning uchun tarjimashunoslik sohasiga doir ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish”¹ va shu orqali yetuk tarjimonalarni tayyorlashga ehtiyoj sezilmoqda. Shu jihatdan olib qaralganda mazkur dissertatsiya ishi dolzarblilik kasb etadi.

Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi 292-son “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son Qarori,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2018 йил 5 мартдаги Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Исоқхон Ибрат номидаги мактаб-интернатига ташрифидаги нутқи. Электрон ресурс: <http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhon-t-ra-ibrat-mazhm.2022>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Ma‘lumki, o‘zbek va xorij olimlari tomonidan badiiy tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik muammolariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mamlakatimizda badiiy matndagi tasviriy vositalar, ma‘nodosh hamda ko‘p ma‘noli (polisemik) so‘zlarning tarjimada aks etishi, frazeologik birliklarning qay tarzda berilishi, bir millatga tegishli milliy-madaniy jihatlar, badiiy tarjimaning stilistik, pragmatik hamda lingvokulturologik masalalariga oid tadqiqotlar G‘.Salomov², Q.Musayev³, M.Umarxodjayev⁴, M.Xolbekov⁵, N.Otajonov⁶, Z.Sodiqov⁷, A.Mamatov⁸, G‘.Xoshimov⁹, D.Xoshimova¹⁰, N.Dosbayeva¹¹, M.Todjihodjayev¹²larning ishlarida amalga oshirilgan.

Jahon tilshunosligida O.Kade, L.S.Barxudarov, N.K.Garbovskiy, S.Vlahov va S.Florin, S.F.Goncharenko, G.V.Denisova, V.I.Ermolovich, T.A.Kazakova, Yu.N.Karaulov, V.N.Komissarov, N.A.Krasavskiy, A.Lilova, Z.D.Lvovskaya, L.Mikulina, A.D.Shveyser¹³ kabi olimlar tomonidan tarjimaning nazaiy masalalari,

² Саломов Ф. Бадий таржиманинг лексик-фразеологик масалалари. – Тошкент: Фан. 1960. – Б.94

³ Мусаев К. Стилистические вопросы художественного перевода с английского языка на узбекский. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд: 1967. – Б.25

⁴ Умарходжаев М. Основы фразеологии. Дис... д-ра филол. наук. – Москва: 1981. – С. 77-100

⁵ Холбеков М.Н. Таржимашунослик ва таржима танқиди. – Тошкент: 2015. – Б.112

⁶ Отажонов Н. Бадий таржима ва илмий шарҳ. Филол. фан ном. ... дисс. – Тошкент: 1998. – Б.124

⁷ Садиқов З. Юсуф Хос Ҳожиб «Кутадғу билиг» асари немисча ва инглизча таржималарининг қиёсий – типологик таҳлили: Филол. фан. д-ри. (DSc) дисс... автореф. – Тошкент: 2020. – Б. 74.

⁸ Маматов А. Фразеологик birliklarning лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. – Тошкент: 2018. – В. 100

⁹ Хошимов Г. [Типология сложных предложений разносистемных языков](#). –Ташкент: 1991. – С. 195

¹⁰ Xoshimova D. “Boburnoma“ matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi. filol.fan...dok.(DSc) dis.avtoref.– Toshkent: 2018. – В.74

¹¹ Dosbayeva N. O‘zbek nasriy adabiyotidan ingliz tiliga tarjimalarning lingvomadaniy tahlili. filol.fan...dok.(DSc) dis.avtoref.– Toshkent: 2021. – В.76

¹² Тоджиходжаев М. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. Филол. фан... фалсафа док. дисс. – Наманган: 2021. – Б. 137.

¹³ Каде О. Проблемы перевода в свете теории коммуникативности / О.Каде // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – Москва: Международные отношения, 1978. – С.69-90.; Бархударов Л.С. Общелингвистическое значение теории перевода / Л.С.Бархударов // Теория и критика перевода. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1962. – С.8-14.; Бархударов Л.С. Язык и перевод / Вопросы общей и частной теории перевода. – Изд. 2-е. – Москва: Изд-во ЛКИ, 2008. – 240 с.; Гарбовский Н.К. Теория перевода. – Москва: Изд-во Моск. ун-та, 2004. – 544 с.; Гончаренко С.Ф. Поэтический перевод и перевод поэзии: константы вариативности / С.Ф.Гончаренко // Тетради переводчика. Под ред. проф. С.Ф.Гончаренко. – 1999. – Вып. 24. – С.107-122.; С.Влахов., С.Флорин. непереводаемый в переводе. – Москва: 2012.; Денисова Г.В. Границы перевода. Учебное пособие / Г.В.Денисова. – Москва: Издательство МГУ, 1998. – 80 с.; Ермолович В.И. Проблемы изучения психологических аспектов перевода / В.И.Ермолович // Тетради переводчика. Подред. проф.

badiiy tarjima muammolari, tarjimaning psixologik aspekti, badiiy matn tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari, tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik muammolari atroflicha tadqiq etilgan.

Tarjimaning lingvomadaniy va kognitiv, kommunikativ va funksional aspekti, tarjimada olam lisoniy va kognitiv manzarasining namoyon bo'lishi masalalari N.Valeeva, Ye.A.Gut, V.Z.Demyankov, S.E.Pastuxova, Ye.V.Nikitina, D.R.Raxmatullina, I.N.Fursovaning ishlari¹⁴ da yoritilgan.

M.Karimov o'z tadqiqotida "O'tkan kunlar" romanining inglizcha tarjimalaridagi tasviriy vositalar lingvokulturologik jihatdan tadqiq etgan¹⁵. Bulardan tashqari, o'lchov birliklari tadqiqi borasida ham bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, A.V.Ponidelko ingliz va rus tillarida o'lchov birliklari leksikasining shakllanish masalasini tadqiq etgan¹⁶, S.B.Shodmonova "Boburnoma" matnining inglizcha tarjimalarida o'lchov birliklari leksemalarining lingvokulturologik va pragmatik jihatlarini o'rgangan¹⁷, A.D.Paizbekova ingliz, rus, o'zbek va qozoq tillari maqollaridagi vaqt reprezentatsiyasining lingvokognitiv aspektini tadqiq etgan¹⁸, L.A.Nagornova ingliz va rus tillaridagi o'lchov kategoriyasini tasvirlash usullarini tadqiq etgan,¹⁹ M.A.Xasanova esa tojik tilidagi o'lchov birliklari masalasida tadqiqot olib borgan²⁰.

С.Ф.Гончарепко. – Москва: 1999. – Вып. 24. – С.45-62.; Казакова Т.А. Коммуникативно-прагматические основы художественного перевода. Валеева Н.Г. Теория перевода: культурно-когнитивный и коммуникативно-функциональный аспекты: Монография / Н.Г.Валеева. – 3-е изд., испр. и доп. – Москва: 2018. – 244 с.; Gutt E.A. Translation and Relevance. Cognition and Context. – Oxford: Basil Blackwell, 1991.; Когнитивная, или когнитивно-деятельностная, теория перевода // <https://studfile.net/preview/9173905/page:17/> (мурожаат санаси: 04.12.2022). Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературном языке // Вопросы филологии. – Москва: 2001. – № 1. – С. 35.; Пастухова С.Е., Никитина Е.В. Когнитивный подход в переводоведении // Приоритетные научные направления: от теории к практике. Сборник материалов XXXVI Международной практической конференции, 2017. – С. 157-163.; Ракматуллина Д.Р. Когнитивные модели и лингво-когнитивный анализ в переводоведении // <https://scipress.ru/philology/articles/kognitivnye-modeli-i-lingvokognitivnyj-analiz-v-perevodovedenii.html>; урсова И.Н. Когнитивный подход в переводоведении // Lingua Mobilis. Научный журнал. – Челябинск: № 6 (45). 2013. – С. 66-73. Режим доступа: <https://linguamobilis.ucoz.ru/> 2013/2013-6-45.pdf (санаси: 8.04.2022).

¹⁴ Relevance. Cognition and Context. – Oxford: Basil Blackwell, 1991.; Когнитивная, или когнитивно-деятельностная, теория перевода // <https://studfile.net/preview/9173905/page:17/> (мурожаат санаси: 04.12.2022) Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературном языке // Вопросы филологии. – Москва: 2001. – № 1. – С. 35.; Пастухова С.Е., Никитина Е.В. Когнитивный подход в переводоведении // Приоритетные научные направления: от теории к практике. Сборник материалов XXXVI Международной практической конференции. – Москва: 2017. – С. 157-163.; Ракматуллина Д.Р. Когнитивные модели и лингво-когнитивный анализ в переводоведении // <https://scipress.ru/philology/articles/kognitivnye-modeli-i-lingvokognitivnyj-analiz-v-perevodovedenii.html>; Фурсова И.Н. Когнитивный подход в переводоведении // Lingua Mobilis. Научный журнал. – Челябинск: № 6 (45). 2013. – С. 66-73. Режим доступа: <https://linguamobilis.ucoz.ru/> 2013/2013-6-45.pdf (мурожаат санаси: 8.04.2022)

¹⁵ Karimov M. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanining inglizcha tarjimalarida tasviriy vositalarning lingvokulturologik tadqiqi (sinekdoxa, o'xshatish va kinoya misolida). Ffilologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Andijon: 2023 y.

¹⁶ Пониделко А. Особенности формирования метрической лексики в английском и русском языках. Автореферат кандидат филологических наук. – Москва: 2006.

¹⁷ Shodmonova S. "Boburnoma" matning inglizcha tarjimalarida o'lchov birliklari leksemalarining lingvokulturologik va pragmatic tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand: 2022 y.

¹⁸ Paizbekova A. Ingliz, rus, o'zbek va qozoq tillari maqollaridagi vaqt reprezentatsiyasining lingvokognitiv aspekti. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: 2017.

¹⁹ Нагорнова Л. "Способы выражения категории «мера» в английском и русском языках". Автореферат АКД. – Томск: 2007.

²⁰ Хасанова М. Единицы измерения в таджикском языке. Автореферат кандидат филологических наук. – Душанбе: 2023.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tadqiqot ishlarining aksariyati badiiy tarjima muammolariga bag'ishlangan. Tahlil qilib chiqilgan ishlardan farqli o'laroq, bizning tadqiqot ishimizda Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida numerativ va o'lchov birliklarining qo'llanishi, ularning lingvokulturologik hamda lingvopragmatik tadqiqi va numerativ va o'lchov birliklarining tarjimada aks etishi, qayta tiklanish usullari, ushbu til birliklarining tarjima qilish strategiyalari hamda uch xil tarjima nusxalarini qiyoslash asosida tarjima qilish texnologiyasi tizimlashtirildi.

Tadqiqotning maqsadi. A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" asari inglizcha tarjimalarida numerativ va o'lchov birliklarining lingvokulturologik hamda lingvopragmatik tadqiqi masalasini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- "O'tkan kunlar" asarining inglizcha tarjimalaridagi numerativ va o'lchov birliklarining lingvopragmatik jihatlarini tadqiq etish hamda ularning tarjima usullarini belgilash;

- o'lchov birliklari leksemalarining tarjima qilish tamoyillarini aniqlash, vaqt hamda uzunlik o'lchov birliklari leksemalarini o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish muammolarini yoritish;

- o'lchov birliklari leksemalarining lingvokulturologik xususiyatlari va ularning inglizcha tarjimalarda qayta tiklanish masalalarini o'rganish;

- asardagi pul qiymatini ifodalovchi hamda diniy-ma'rifiy atamalar bilan ifodalangan o'lchov birliklari leksemalarining inglizcha tarjimada aks etishini tahlil etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari va uning ingliz tiliga I.To'xtasinov (Hammualiflar O.Mo'minov, A.Hamidov), K.Y.Yermakova hamda M.Riizlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalari tanlandi.

Tadqiqotning predmeti "O'tkan kunlar" asarining inglizcha tarjimalarida numerativ va o'lchov birliklarining lingvokulturologik hamda lingvopragmatik jihatdan tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotimizda qiyosiy-chog'ishtirma tahlil, leksik-semantik, statistik, kontekstual va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- "O'tkan kunlar" romanining I.To'htasinov va boshqalar, Mark Riiz va K.Yermakova tarjimalari matnida o'lchov birliklari leksemalarini ingliz tiliga asosan transliteratsiya, ekvivalentlik (to'liq, shakliy almashuv) va adaptatsiya (tarjima tili madaniyatiga muvofiq variant tanlash) usullari bilan tarjima qilingani asoslangan;

- I.To'htasinov va boshqalar, Mark Riiz va K.Yermakovalar tarjimalarida o'zbek tilidagi aksariyat uzunlik o'lchov birliklarining tarjimada adekvatlik tamoyiliga ko'ra lingvokulturologik xususiyatlari aks etmagani "to'rt enli", "olchin", "qarich" kabi leksemalari orqali asoslangan;

- romandagi vaqt o'lchov birliklarini aks ettirish uchun tarjimalarda grammatik transformatsiyaning sintaktik moslashuv turidan foydalanilgani va natijada asliyatning lingvokulturologik jihati saqlab qolingani dalillangan;

- boshqa tarjimalardan farqli o'laroq, Mark Riiz tarjimasida asliyat matnining pragmatik xususiyatlari ko'proq saqlab qolingani, bunga tarjima jarayonida qisqartirib ketish kabi leksik-semantik va asliyatdagi o'lchov birliklarini ingliz tilidagi o'lchov birliklariga moslashtirish, milliyashtirish usullari orqali erishilgani ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- asliyat matndagi o'lchov birliklari leksemalarining lingvokulturologik xususiyatlari, stilistik bo'yoqdorlikni aks ettirish holati tarjima tilida mavjud muqobil ma'nolarga ega bo'lgan leksik birliklarni tarjima qilish usullaridan foydalanish tavsiya etilgan;

- badiiy matnda stilistik jilolarni hosil qiluvchi til birliklari va stilistik vositalarni tarjima qilish strategiyalaridan filologlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida qo'llangan yondashuv, muammoning aniq qo'yilganligi va vositalarning zamonaviy lingvistik nazariyalarga mosligi hamda qiyosiy tahlil kabi usullar vositasida asoslanganligi, OAK tasarrufidagi maxsus hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalarning qat'iyiligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar joriylanishining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tilidagi badiiy asarlarda qo'llanilgan o'lchov birliklari leksemalarining lingvokulturologik xususiyatlarining ingliz tilidagi tarjimalari tahlilining nazariy xulosalaridan tilshunoslik, tarjimashunoslik, stilistika hamda madaniyatlararo muloqot yo'nalishlaridagi tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak tarjimonlar va tarjimashunoslar oldida turgan dolzarb masalalar, jumladan asliyatdagi madaniy xarakterga ega bo'lgan ma'nolarni ona tiliga tarjima qilish samaradorligini oshirish, tarjimani qayta yaratish muammolariga yechim bo'la oladigan muhim qo'llanma bo'lishi mumkinligi, tadqiqot natijalari va xulosalari mamlakatimizdagi bir qator oliy ta'lim muassasalarida qiyosiy adabiyotshunoslik, matn tahlili, tarjimashunoslik fanlari bo'yicha ma'ruza matnlari tayyorlash, darslik hamda o'quv lug'atlari yaratishda foydali material bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriylanishi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari inglizcha tarjimalarida numerativ va o'lchov birliklarining lingvokulturologik va lingvopragmatik tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

"O'tkan kunlar" romanining I.To'htasinov va boshqalar, Mark Riiz va K.Yermakovalar tarjimalarida o'lchov birliklari leksemalarini ingliz tiliga asosan

transliteratsiya, ekvivalentlik usullari bilan tarjima qilingani, romandagi vaqt o'lchov birliklarini aks ettirish uchun grammatik transformatsiyaning sintaktik moslashuv turidan foydalanilgani haqidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston teleradiokompaniyasi DM kanali tomonidan tayyorlangan "Adabiy jarayon", "Ta'lim va taraqqiyot", "Bedorlik" nomli radio eshittirishlarining 2023-fevral va avgust oylaridagi sonlari senariysida foydalanilgan ("O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali" davlat muassasasining 2023-yil 11-sentyabrdagi 04-36-1368-sonli ma'lumotnomasi). Natijada radioeshittirishlarning yanada qiziqarli va hammabop bo'lishiga erishilgan va tadqiqotda aks etgan o'zbek adabiyotining nodir asarlarini o'rganish, ularni tadqiq etish, "O'tkan kunlar" romani o'z davrini voqea-xodisalarini keng yoritish bilan bir qatorda tarjimashunoslik sohasida o'rganilishi lozim bo'lgan ko'plab masalalarga boyligi tinglovchilarga yetkazilgan;

romandagi vaqt o'lchov birliklari tarjimalarida asliyatning lingvokulturologik jihati saqlab qolingani, Mark Riiz tarjimasida asliyat matnining pragmatik xususiyatlari ko'proq saqlab qolingani haqidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi chora-tadbirlar dasturining 35-bandi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligining 2023yil 21 dekabrdagi 02-12-16-8636-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga xizmat qilgan;

tadqiqotning ilmiy xulosalaridan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqolpog'iston filialida bajarilgan FZ-2016-0908165532-raqamli "Qoraqolpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda qo'llanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqolpog'iston filialining 2023 yil 26 dekabrdagi 638-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyiha o'zbek tilidagi uzunlik va vaqt o'lchov birliklari, ularning lingvokulturologik hamda pragmatik xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda abbrobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop ettirilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va

1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 126 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti bayon qilingan. Respublika fan va texnologiyalar komitetining ustivor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko'rsatilgan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ishonchliligi bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“O'lchov birliklari leksemalari tarjimalari tadqiqotining ilmiy-nazariy asoslari”** mavzusida bo'lib, ikki fasldan iborat. Bobning birinchi fasli “O'lchov birliklari leksemalari tarjimalari tadqiqi xususida” deb nomlanadi va unda yurtimiz va xorijlik tarjimashunos olimlarning o'lchov birliklari leksemalarini tarjima tilida qayta yaratish usullari haqidagi fikrlari muqoyasa qilinib, munosabat bildirilgan va bildirilgan nazariy fikrlar misollar orqali izohlab berilgan.

Badiiy asarlarda qo'llanilgan o'lchov birliklari tarjimasida masalasi borasida so'z borganda *bolgar olimlari S.I.Vlaxov* va *S.P.Florin*larning quyidagi fikrlarini ta'kidlab o'tish lozim:

1. Raqamlar yoki boshqa miqdoriy so'zlar bilan bogliq bo'lgan o'lchov birliklari har qanday matnda ma'lum masofa, vazn, hajm va boshqalar haqida ma'lumot beradi. Ushbu ma'lumotni idrok etish uchun o'quvchi ana shu o'lchovlarning haqiqiy qiymatlarini bilishi yoki hech bo'lmaganda ular haqida taxminiy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Demak, o'quvchiga notanish bo'lgan birliklar u yoki bu tarzda tarjima qilinishi yoki hech bo'lmaganda o'quvchi ularning moddiy mazmunini taxmin qila oladigan tarzda taqdim etilishi kerak;

2. O'lchov birliklari atamalar sifatida aniq fanlarga xos bo'lib, ularning ko'rinishi raqamlar va belgilardan iborat. Badiiy adabiyotda qo'llanilganda o'lchovlar – voqelik tilida aniq ma'lumotni yetkazish uchun emas, balki o'quvchi tasavvurida paydo bo'lgan g'oyani aks ettirishga xizmat qiladi;

3. Tarjima matni o'quvchisi o'zga bir xalq milliyligiga xos bo'lgan o'lchov birligini tarjimada transkripsiyalangan tarjima shakli ma'nosini faqat umumiy ma'noda, ozmi-ko'pmi tushunsa, bu har doim ham real tarjima uchun yetarli emas.

4. Tarjimon asliyat matnida keltirilgan o'lchov birliklari ma'nolarini aynan saqlab qolishi kerak bo'lgan holatlarda tarjimaning eng maqbul usuli – aniq va yashirin – transkripsiya bo'lib qoladi.

5. Badiiy asarlar tarjimasida asliyat matnida ma'lum bir voqelik tasvirlanayotganligini inobatga olgan holda, yuqorida ta'kidlanganidek, transkripsiya tamoyilidan foydalanishdan tashqari tarjima tilida mavjud bo'lgan asliyatdagi o'lchov birligiga teng bo'lgan muqobili bilan almashtiriladi. Bularga turli xalqlar orasida o'xshash va bir-biriga yaqin bo'lgan antropometrik o'lchovlardan foydalaniladi;

6. Yana ta'kidlash kerakki, tarixiy va milliy tusga ega bo'lgan voqelik-o'lchov birliklari tarixiy davr xalq o'lchovlari bo'lganligi uchun, ularning tarjimasini ko'pincha transkripsiya yoki funksional analog orqali amalga oshiriladi²¹.

“Mumtoz asarlarda qo'llanilgan o'lchov birliklari leksemalarini tarjima qilishda tarjimon uning nozik jihatlarini ilg'ay olishi kerak bo'ladi. Chunki bunday o'lchov birliklari leksemalari mazkur xalq tarixiy taraqqiyotining mahsuli bo'lib, tarixiy-milliy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirishi bilan xarakterlidir. Mumtoz asarlarda qo'llanilgan o'lchov birliklari leksemalarini o'girishda tarjimonlar ko'pincha transliteratsiya usulidan foydalanadi”²².

Tadqiqotchi S.Shodmonova masofa, og'irlik, pul birliklari, kiyim-kechak, ro'zg'or ashyolari kabi milliy xususiyatlarga ega bo'lgan tushunchalarni anglatadigan so'zlarni transliteratsiya yo'li bilan talqin qilish xorijiy muhit va sharoitning kitobxon ko'z oldida ochiq-oydin jonlanishini ta'minlaydi, – deya ta'kidlaydi²³.

Mazkur bobning ikkinchi faslida o'lchov birliklari leksemalarini tarjima qilish tamoyillari xususida so'z boradi. Lisoniy tarjima xilma-xil turlarga bo'linadiki, badiiy adabiyot tarjimasini ular orasida alohida o'rin tutadi. O'girilayotgan matnning xususiyati badiiy tarjimada o'ziga xos o'rinni belgilaydi. Badiiy adabiyot namunalari boshqa nutqiy ifodalardan shunisi bilan farq qiladiki, unda badiiy – estetik va poetik jihatlar hukmronlik qiladi. Bunday asar turining asosiy vazifasi muayyan estetik ta'sirchanlikka erishishdan, badiiy obraz yaratishdan iboratdir. Ayni estetik yo'nalish badiiy nutqni axborot tarqatish vazifasi ustun boshqa nutqiy faoliyatlardan ajratib turadi. Shunday qilib, o'giriladigan matnlarni vazifalariga qarab “badiiy” va “nobadiiy” (axboriy) kabi turlarga bo'lish mumkin.

Tarjimaning maqsadi-bir til lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnning ikkinchi til materialini asosida qayta yaratishdan iboratdir. Buning uchun tarjimon, birinchi navbatda, asl nusxani to'la-to'kis idrok etishi, so'ngra uni o'z tilida bekorlik bilan qayta ifodalashi zarur.

Muallif yaratgan badiiy-estetik voqelikni to'laligicha idrok etish uchun tarjimon keng mushohada quvvatiga ega bo'lgani holda, badiiy tarkib asosida lisoniy vositalarning mazmuniy va uslubiy-estetik jihatlarni to'g'ri anglashi, shu bilan birga muallif nazarda tutgan bosh g'oyani, uning niyat va maqsadlarini, ochiq oydin ko'zga tashlanib turgan voqea-hodisalar tasviridan tashqari yana matn ortida turgan voqelikni, bir so'z bilan aytganda nafaqat lisoniy, balki g'ayrilisoniy omillarni ham to'la-to'kis tasavvur etishi zarur.

Tarjimaning vazifasi – asl va tarjima tillari leksik, grammatik va stilistik hodisalari halqasidagi uyg'un hamda tafovutli jihatlarni puxta o'zlashtirib olgan holda, aslning shakli va mazmuni birligini ona tili vositalari yordamida qayta

²¹ Влахов С.И., Флорин С.П. Непереводимые в переводе, библиотека лингвиста, издание 5-е. – Москва: 2012. – С.173-184.

²² Shodmonova S. “Boburnoma” matning inglizcha tarjimalarida o'lchov birliklari leksemalarining lingvokulturologik va pragmatic tadqiqi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati – Samarqand: 2022. B-14.

²³ O'sha manba. B-15.

yaratishdan iboratdir. Bu tamoyilga rioya qilmaslik tarjimada aniqlikning, to‘la-to‘kislikning, ifoda me‘yorining buzilishiga, harfxo‘rlikning sodir bo‘lishiga olib keladi.

Tarjimada asliyatning shakl va mazmun birligini, yaxlitligini bejirim ifoda etish uchun tarjima tilida muqobil ifoda vositalari qidirib topish zarurati tug‘iladi. Bu jarayon asl nusxa mazmunini o‘zga tilda ifoda etishning qator imkoniyatlari orasidan eng maqbulini tanlab olishni taqozo etadi.

Tarjimaviy muammolarni hal qilish tarjimondan puxta filologik bilim va tegishli nazariy tayyorgarlikni talab qiladi. Tarjimon nazariy bilimni tarjima amaliyoti tahlili asosida ehtiyoj tufayli vujudga kelib, keng ko‘lamda faoliyat ko‘rsatayotgan tarjima nazariyasidan oladi. Tarjima nazariyasining vazifasi – asl nusxa bilan tarjima orasidagi nisbat qonuniyatlarini kuzatishdan, xususi tarjimaviy hodisalardan hosil bo‘lgan xulosalarni ilmiy dalillar asosida umumlashtirishdan, shu yo‘l bilan tarjima amaliyotiga ta’sir o‘tkazib, uning sifatini yaxshilashga ko‘maklashishdan iboratdir.

Shunday qilib, ikki til lisoniy-uslubiy hodisalarini qiyoslash orqali asl nusxaning shakl va mazmun birligini tarjimada muqobil lisoniy vositalar yordamida qayta yaratish yo‘l va imkoniyatlarini qidirib topish va shu asosda tarjima amaliyotining sifat o‘zgarishiga olib keladigan nazariy umumlashmalar yaratish tarjima nazariyasining predmetini belgilaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “O‘tkan kunlar” asari o‘lchov birliklari leksemalari inglizcha tarjimalarining lingvokulturologik xususiyatlari” deb nomlangan. Uning birinchi fasli o‘lchov birliklari leksemalarining lingvokulturologik xususiyatlari va ularning inglizcha tarjimalarda qayta tiklanish masalalariga bag‘ishlangan.

Ma’lumki, tarjimada lingvomadaniy aspektlardan to‘g‘ri foydalanish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. O‘lchov birliklari leksemalarining lingvokulturologik xususiyatlari tarjimada asliyatga muvofiq aks etishi muhimdir. Tarjimaning asosiy muvafaqqiyati o‘lchov birliklari leksemalarini to‘laqonli qayta yaratish, asliyat muallifi uslubini saqlagan holda shakl va mazmunini tarjimada bera olishdir.

Ma’lumki, “O‘tkan kunlar” romanida ko‘plab o‘lchov birligi leksemalaridan foydalanilgan. Muallif voqea-hodisalarni tushuntirish bilan bir qatorda joylar o‘lchamini ham xuddi o‘quvchi ko‘z o‘ngida namoyon qila oladigan tarzda gavdalantira olgan. Bunda o‘zbek milliy madaniyatiga xos bo‘lgan tarixiy, o‘z zamonasida keng qo‘llanilgan bir qator o‘lchov birligi leksemalari namoyon bo‘ladi-ki, ular nafaqat asar mazmunini ochib berish yoki biror joy, bino, buyum va shunga o‘xshash narsalarni o‘lchamlarini tasvirlash uchun xizmat qilgan, balki o‘zbek xalqi milliy madaniyatini ham o‘zida aks ettira olgan. E’tiboringizni asardan olingan quyidagi matnga qaratmoqchimiz:

“Jannat opa ayvong‘a chiqq‘anda, Otabek ustidagi zanbil to‘rt enlik yuqorig‘a ko‘tarilib, tag‘in sekingina uni bosib tushkan edi”²⁴.

²⁴ Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1994. Б-240.

Ko‘rinib turibdiki, asardan olingan ushbu parcha orqali muallif o‘z davri leksikasidan foydalangan holda voqea-hodisani ifodalagan. Lekin eski o‘zbek milliy o‘lchov birligi leksemalaridan keng foydalanganligi asar qimmatini yanada oshirish bilan bir qatorda tarjimada biroz murakkablik keltirib chiqarishi mumkin. “...zanbil to‘rt enlik yuqorig‘a ko‘tarilib...” iborasini o‘qigan har bir o‘zbek kitobxonni hech qanday mubolag‘asiz, xuddi o‘zi ko‘rib turganday zambilni Otabek ustidan qancha miqdorda ko‘tarilib yana qayta joyiga tushganligini tushunadi va tasavvur eta oladi. Muallif xuddi o‘quvchiga voqeani tasvirda ko‘rsatib berganday ifodalay olgan. Shu o‘rinda o‘zbek tilidagi qadimda keng iste‘molda bo‘lgan va hozirda kam holatlarda qo‘llanilayotgan “enlik” o‘lchov birligi leksemasi izohini ko‘rib o‘tishni joiz deb bildik. “Enlik” – enli, barmoq (asosan odamning o‘rta barmog‘i) kengligidagi uzunlik o‘lchov birligi, taxminan 2-3 smga teng²⁵.

Enlik so‘zining izohidan bilish mumkinki, Otabek ustidagi zambil deyarli bilinar-bilinmas tepaga ko‘tarilgan, taxminan 8-10 sm lar atrofida (Ta‘kid bizniki – M.T.).

I.To‘xtasinov va boshqalar tomonidan o‘g‘irilgan inglizcha tarjimasida bu parcha quyidagicha aks ettirilgan:

“When Jannat opa stepped on the terrace the stretcher over Otabek was raised and again put to its place”²⁶. (*Jannat opa ayvonga chiqqanida Otabekning ustidagi zambil ko‘tarilib va yana joyiga tushdi.*)

Ko‘rinib turibdiki, tarjimada asliyat matnidagi “to‘rt enli” o‘lchov birligini ifodalovchi leksema o‘z aksini topmagan. Oddiygina qilib Otabek ustidagi zambil bir ko‘tarilib qaytib joyiga tushganligi aks etgan, xolos. Bu tarjima matnida o‘lchov birliklarining lingvokulturologik xususiyatlari o‘z aksini topmagan. Bu yerda asliyat matnidan bexabar bo‘lgan ingliz o‘quvchisi uchun biroz tushunmovchilik yuzaga kelishi mumkin. Chunki, o‘zini yashirishga uringan Otabek ustidagi zambil ko‘tarilsa uni oshkor etib qo‘yishi mumkinligi muammosi kitobxon oldida bir masala bo‘lib qoladi. Shu yerda tarjimonlar “to‘rt enli” uzunlik o‘lchovini ingliz tiliga “four inches” tarzida tarjima qilishganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki, “inch” uzunlik o‘lchov birligi bo‘lib, 2.54 santimetrغا teng.

Ushbu parcha Kerol Yermakova tomonidan quyidagicha o‘g‘irilgan:

“Once she had climbed onto the ayvan, a hand from the ground moved the barrow aside. It was Atabek, returning it to its rightful place”²⁷.

K.Yermakova tarjima matnida ham asliyat matnidagi “to‘rt enlik” uzunlikni bildiruvchi o‘lchov birligi leksemasi o‘z aksini topmagan. Shu bilan tarjima matnida o‘zbek tilidagi o‘lchov birligining lingvokulturologik xususiyati aks etmagan.

Mark Riiz esa ushbu matnni ingliz tilida quyidagicha aks ettirgan:

²⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Э. Бегматов ва бошқалар. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – Тошкент: Э-pdf, -41.

²⁶ Qodiriy, Abdulla. *The Days Gone By: Novel*. Translators: I.M. To‘htasinov, O.M.Mo‘minov, A.A. Khamidov. – Tashkent: “Mashhur press” 2017. p-237.

²⁷ Abdulla Qadiri, *Days Gone By*, Translated by Carol Ermakova, *Nouveau monde*, – Paris: 2018. p-222.

“When she reached the veranda, the wheelbarrow was a hands width above the ground – it was Otabek putting it back in place”²⁸.

Tarjimon Mark Riiz tarjima matnida ham uzunlik o‘lchov birligi aniq ifodalanmagan. Bu bilan o‘zbek tilidagi asliyat matni lingvokulturologiyasi tarjima matnida o‘z aksini topmagan.

Har uchala tarjima matnida ham asliyat matnidaga “to‘rt enli” uzunlik o‘lchov birligi keltirilmagan va asliyat matni ma‘nosi biroz xiralashgan.

Bobning keyingi fasli asardagi vaqt o‘lchov birliklari leksemalarini ingliz tiliga tarjima qilish masalalariga bag‘ishlangan.

“O‘tkan kunlar” romanida Abdulla Qodiriy o‘sha davr ruhini ifodalash uchun ko‘plab tasviriy vositalardan keng foydalangan. Ayniqsa, voqea-hodisaning sodir bo‘lgan vaqtini ko‘rsatishda o‘sha vaqt manzarasini ham to‘laqonli tasvirlab bera olgan. Bunda o‘quvchi ko‘z o‘ngida vaqt bilan bir qatorda atrof-muhit manzarasi ham to‘laqonli ravishda gavdalangan. Masalan: “1264-nchi hijriy, dalv oyining 17-nchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botgan, tevarakdan shom azoni eshitiladur”²⁹.

Ushbu olingan parchada yozuvchi avvalo yilni ifodalagan bo‘lsa, aniqlik kiritish maqsadida «qishki kunlarning biri» deb alohida ta’kidlagan. Bu yerda “dalv oyi» deyilganda yanvar oyini tushunish mumkin³⁰. Shu bilan bir qatorda “quyosh botgan” vaqtni ifodalovchi leksemasi orqali yanada aniqlik kiritilgan. Ya’ni o‘sha kunning kechki payti, quyosh botgandan keyingi payt ekanligi ifodalangan. Bundan tashqari, “shom azoni eshitiladur” iborasi ham aynan musulmon olamida besh vaqt nomozning birini vaqti bo‘lganligini bildiradi. Shu tariqa, paytni ifodalovchi leksemalar bir-birini to‘ldirgan holda o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniq bir vaqt tasvirlanishi bilan bir qatorda tarixiylik ham to‘laqonli ifodalab berilgan.

Ushbu badiiy tasvir ifodasi asarning ingliz tiliga qilingan har uchala tarjimalarida qay tarzda ifodalab berilganligini ko‘rib o‘tamiz:

«It was the 17th day of the winter month Dalv in the year of 1264. After the sunset, calls for evening prayers came from nearby»³¹ deb tarjima qiladi. Bu yerda “month Dalv” oyning nomi o‘zbek tildidan ingliz tiliga transkripsiya yo‘li bilan tarjima qilingan va sahifa ostida (Dalv-january, ya’ni dalv yanvar) tarzida izohi berilgan. Tarjimonlar muallif tomonidan ifodalangan tasviriy vositalar orqali bildirilgan vaqtni ingliz o‘quvchisiga tushunarli qilib ifodalab berishga harakat qilganlar va bunga erishganlar. Sahifa ostida keltirilgan “dalv” oy nomi qisqa holatdagi izohi kitobxonda tushunish uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Tarjimonlar adekvatlikka erishish maqsadida tarjimada muallif uslubini saqlash uchun unga

²⁸ Abdullah Qodiriy, *Bygone days*, translated by Mark E. Reese, Library of Congress Control Number 2019914747, 2018, p-405.

²⁹ Ўша асар. Б-7.

³⁰ Далв – Шамсия йил хисобида ўн биринчи ойнинг арабча номи.(22-январ-22-феврал даврига тўғри келади). Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Э. Бегматов ва бошқалар. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – Тошкент: D-pdf, 6-548.

³¹ Qodiriy, Abdulla. *The Days Gone By: Novel*. Translators: I.M. To‘htasinov, O.M.Mo‘minov, A.A. Khamidov. –Tashkent: “Mashhur press” 2017, p-6.

ergashgan holda “*qishki kunlarning biri*” iborasini “*day of the winter month*” tarzida tarjima qilganlar. Tarjimada muqobillikka erishilgan.

Romanning yana bir tarjimoni Kerol Yermakova tarjimasida parcha quyidagicha tasvirlangan: «*It was the seventeenth day of the month of dalv, hijri year 1264. A winter day. Calls to evening prayer rang from all around as the sunset*»³².

Asliyat matnida keltirilgan “*1264-nchi hijriy*” paytni bildiruvchi leksema ingliz tiliga transkripsiya yo‘li bilan “*hijri year 1264*” tarzida o‘girilgan. Ingliz kitobxoniga tushunarli bo‘lishi uchun “*hijri*” so‘ziga matn ostida izoh berib o‘tilgan. Matn ostida keltirilgan ushbu izoh inglizabon kitobxonda vaqtni anglash, tushunish imkonini beradi. Tarjima davomida muallif uslubini saqlagan holda “*A winter day*” – “*qishning bir kuni*” tarzida aniqlik kiritib o‘tilgan. Umuman olganda asliyat ma‘nosi tarjimada o‘z aksini topgan.

Yuqorida asliyatdan olingan matn Mark Riiz tarjimasida quyidagicha berilgan: “*It was the year 1264 of the Hijra, the seventeenth day of Dalv, a winter day. The Sun descended into the horizon as darkness set in, and one could hear the call to prayer resonating in clear tones throughout the still evening air*”³³.

Tarjimon muallif tomonidan ifodalangan har bir detalga alohida e‘tibor qaratgan. To‘g‘ri, “*1264 of the Hijra*” vaqtni ifodalovchi leksemasi ingliz kitobxoniga tushinarsiz bo‘lishi mumkin. Buni oldini olish uchun tarjimon ushbu leksemani transkripsiya yo‘li bilan tarjima qilib, izohini roman tarjimasida so‘nggida bibliografiya tarzida keltirib o‘tgan. “*Day of Dalv*” vaqtni ifodalovchi leksema ham transkripsiya yo‘li bilan tarjima qilingan va xuddi yuqorida ta‘kidlaganimizdek izohi berilgan. Asliyat matnidagi “*quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladur*” vaqtni ifodalovchi leksema “*The Sun descended into the horizon as darkness set in, and one could hear the call to prayer resonating in clear tones throughout the still evening air*” tarzida o‘girilgan. Bir qarashda tarjima matni biroz cho‘zilganday tuyuladi, lekin asliyatda anglashilgan ma‘no to‘lalgicha o‘z ifodasini topgan. Tarjimon muallifning ifoda uslubini yanada go‘zalroq qilib ifoda eta olgan. Masalan, asliyat matnidagi “*Quyosh botqan*” birikmasini jo‘ngina qilib “*sunset*” tarzida o‘girsam ham bo‘lardi. Mark Riiz esa quyosh botishini ingliz tilida badiiy asarlarda qo‘llanadigan varianti “*to descend*” fe‘li bilan ifodalangan. Bu jihatdan asar tarjimoni Mark Riiz so‘z tanlashda to‘g‘ri yo‘ldan borgan.

Kerol Yermakova tarjimasida “*Calls to evening prayer rang from all around as the sunset*” jumlasida biroz asliyatdan yiroqlashgan. Bu yerda ingliz tilidagi “*rang*”- *the past tense of ring, to make a bell produce a sound: a bell rang and the children trooped back into the school*»³⁴ ma‘nolarini anglatadi. Musulmon olamida esa muazzin tomonidan qo‘ng‘iroq chalinmaydi, bu hol boshqa dinga mansub xalqlarda bo‘lishi mumkin.

³² Abdulla Qadiri, *Days Gone By*, Translated by Carol Ermakova, Nouveau monde. – Paris: 2018, p-11.

³³ Abdullloh Qodiriy, *Bygone days*, translated by Mark E. Reese, Library of Congress Control Number 2019914747, 2018, p-41

³⁴ Macmillan English dictionary for advanced learners. Bloomsbury Publishing Plc. 2002, p-1223.

Tarjimonlarning har biri o‘z yo‘li, uslubiga ko‘ra tarjima qilgan. Ayniqsa, qiyosiy tasvirlarni mukammal o‘rganib, qayta tiklagan. Qiyosiy tasvirlarni aks ettirishda grammatik transformatsiyaning sintaktik moslashuv turlaridan foydalanilgan. Bularning hammasi tarjimon mahoratiga bog‘liq, albatta. Tarjimashunos olim G‘.Rahimov to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Tarjimon nafaqat muayyan uslubiy vazifa ifodasi uchun qo‘llangan obrazli yoki hissiy-ta’sirchan lisoniy vositani, balki amaliy jihatdan qiyinchilik tug‘dirmaydi deb tasavvur qilinadigan erkin ma’nodagi u yoki bu so‘z yoxud so‘z birikmasini o‘girishda ham har doim o‘sha vosita mazmunini tarjima tilida qanday so‘z yoki so‘z birikmasi aniqroq va to‘laroq ifoda etishi mumkinligi, mavjud variantlardan qaysi birining asliyat ruhiga ko‘proq mos kelishi haqida o‘ylashi va doim o‘z oldiga nazarda tutilgan fikrni qay tarzda yanada ravonroq bayon etish mumkin degan savolni qo‘yishi zarur”³⁵. Yuqorida ta’kidlangan holatlar asarning har uchala tarjimonlarida ham aniq aks etgan. Pragmatiklik, adekvatlik, vaqt o‘lchov birliklari tarjimasidagi badiiyat va aniqlik shundan dalolat beradiki, mumtoz asar yaratilgan davr uchun odatiy bo‘lgan, ammo hozirda tilning passiv qatlamidan o‘rin olgan, asliyatning haqiqiy tarixiy manba ekanligini ta’minlovchi bu kabi til birliklarining tarjimada me’yorini belgilash juda nozik masala.

Bobning 3-faslida romandagi uzunlikni ifodalovchi o‘lchov birliklarining ingliz tiliga tarjimasida muallif uslubini saqlanishi masalasi tahlil etilgan.

“O‘tkan kunlar” romanida o‘sha davrda omma orasida keng tarqalgan quyidagi uzunlikni ifodalovchi o‘lchov birligi leksemalaridan keng foydalanilgan: qadam, quloch, gaz, adim, olchin, ot adimi, terak bo‘yi, otlam, qarich, enlik, bo‘yra. Albatta, ushbu o‘lchovni bildiruvchi leksemalarning ko‘plari hozirgi kun faol so‘zlashuvda ishlatilmasada, o‘z davrida keng qo‘llanilgan va hozirgi kun o‘quvchisi uchun ham tushunishda qiyinchilik tug‘dirmaydi. Aksincha, ushbu leksemalardan davr ruhi, tarixiylik aksi ufurib turadi va o‘quvchiga bir karra o‘zini o‘sha davrga tushib qolganday, asar qahramonlari bilan birga yurganday his etish imkonini beradi.

Asarda keltirilgan uzunlik, masofa o‘lchovini bildiruvchi leksemalardan biri “*quloch*” so‘zi bo‘lib, ushbu so‘z «yelka balandligida kerilgan har ikki qo‘lning o‘rta barmoq uchlari orasidagi masofa (uzunlik o‘lchovi birligi sifatida)³⁶ ma’nolarni anglatadi. “*Suv bir do‘konning ostidan chiqib, bu havlida uch-to‘rt quloch chamasi ochiq havoda oqar va ko‘prik tom ostiga ketar edi*”³⁷.

Romandan olingan ushbu matn Ilhomjon To‘htasinov va boshqalar tomonidan qilingan tarjima matnida quyidagicha aks ettirilgan:

“*Water gushed out from under a bench run three or four fathoms of the open space, and again hid under the bridge*”³⁸.

³⁵ Шодмонова С. “Бобурнома” матнидаги вақт ўлчов бирликлари лексемаларини инглиз тилига таржима қилиш муаммолари. – Тошкент: Илмий мақола. 2021.

³⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Э. Бегматов ва бошқалар. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – Тошкент: Q-pdf, б-370.

³⁷ Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1994. Б-31.

³⁸ Qodiriy, Abdulla. The Days Gone By: Novel. Translators: I.M. To‘htasinov, O.M.Mo‘minov, A.A. Khamidov. – Tashkent: “Mashhur press” 2017, p-32.

Bu yerda tarjimonlar o‘zbek tilidagi “quloch” uzunlikni bildiruvchi so‘zni ingliz tildagi “*fathom*” so‘zi orqali ifodalashgan. Ya’ni, asliyatdagi “*uch-to‘rt quloch*” uzunlikni ifodalovchi leksemani ingliz tiliga “*three or four fathoms*” deb tarjima qilganlar. Ingliz tilidagi “*fathom*” suvning chuqurligiga nisbatan ishlatiladigan o‘lchov birligi bo‘lib, 1.8 metrga teng. Bizningcha, tarjimonlar tomonidan berilgan “*fathom*» so‘zi asliyatdagi “quloch” so‘ziga nisbatan hajm borasida to‘g‘ri kelsada, qo‘llanish o‘rni jihatidan muvofiq kelmagan. Chunki, asliyat matnida suvning chuqurligi emas, suv oqayotgan ariq qismining uzunligi nazarda tutilgan. Bu o‘rinda “*fathom*» so‘zini qo‘llash to‘g‘ri kelmaydi.

Aynan ushbu parcha Kerol Yermakova tomonidan quyidagicha o‘girilgan:

“The water flowed from beneath a shop, gushed a through a few sagenes of open space, then disappeared once more under a little bridge”.³⁹

Tarjimon o‘z uslubiga ko‘ra asliyatdagi “quloch” so‘zini ingliz tilidagi “*sagen*” so‘zi bilan ifodalagan. Shu o‘rinda sahifa ostida “*sagene*” – equivalent to about seven feet or one fathom (7 fut yoki 1.8 metrga teng) tarzida izoh berib o‘tgan.

Yermakova o‘z tarjima matnida butunlay o‘zgacha yo‘l tutganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. U haqiqatan ham “*fathom*» so‘zidan foydalanmaydi, lekin uning sinonimidan foydalanib, yuqorida ta’kidlaganimizdek sahifa ostiga izoh qoldiradi. Shu bilan masofa jihatdan ham, so‘z tanlash borasida ham asliyatga muvofiq variantni topganday bo‘ladi.

Ushbu parcha Mark Riiz tomonidan quyidagicha o‘girilgan:

“The stream flowed under a workshop, with part of it twisting three or four steps through the yard into the open air before again disappearing under the bridge house”.⁴⁰

Mark Riiz “*uch-to‘rt quloch*” uzunlikni bildiruvchi leksemani oddiygina qilib “*three or four steps*” tarzida o‘giran. Ingliz tilidagi “*step*” so‘zi o‘zbek tiliga «a short movement made by putting one foot in front of the others (qadam tashlash bilan qisqa xarakat qilish, siljish)⁴¹” ma’nolarni anglatadi. To‘g‘ri, “*step*” so‘zining izohiga qaraydigan bo‘lsak ariqning uzunligini o‘lchashda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan so‘z sifatida olishimiz mumkin, lekin “quloch” so‘zi orqali ifodalangan uzunlik ingliz tilidagi “*step*” so‘zi orqali ifodalanadigan uzunlik bilan bir xil masofani anglatmaydi. Yuqoridagi izohlardan ham bilishimiz mumkinki, “quloch” 1.8 metrga teng, salkam ikki metrga teng, “*step*” esa oddiy o‘rtacha odamning qadamiga teng masofani ifodalaydi. Bu jihatdan tarjima asliyatga muvofiq kelmagan.

Kerol Yermakova hamda Mark Riizlarning tarjima matnlarida uzunlik o‘lchovida biroz noaniqliklar mavjud bo‘lsada, lekin asliyatga monandlik biroz bo‘lsada ko‘zga tashlanadi.

³⁹ Abdulla Qadiri, *Days Gone By*, Translated by Carol Ermakova, Nouveau monde. – Paris: 2018, p-34.

⁴⁰ Abdullloh Qodiriy, *Bygone days*, translated by Mark E. Reese, Library of Congress Control Number 2019914747, 2018, p-80.

⁴¹ Macmillan English dictionary for advanced learners. Bloomsbury Publishing Plc. 2002, p-1404

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “O‘tkan kunlar” asaridagi o‘lchov birliklari leksemalari inglizcha tarjimalarining pragmatik xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan.

“O‘tkan kunlar”da muallif ko‘p o‘rinlarda milliylikka xos bo‘lgan, bir millatga mansub bo‘lgan o‘lchov birligi leksemalaridan keng foydalangan. Adibning aytmoqchi bo‘lgan fikrlari tarjima matnida ingliz o‘quvchisi uchun asliyatdagiday yetib borishi, tushunarli bo‘lishi juda muhim masala hisoblanadi.

Romanning asliyat matnida “bir oz choy ichib so‘zlashqandan so‘ng», “bir hovuch suv”, “yarim tovush”, “bir terak bo‘yi jarlik”, “o‘ttuz ikki tanga emas, o‘ttuz ikki qora pul”, “bir yarim qarich osilib ketgan qovoq dudog‘i”, “oz zamon ichida uch-to‘rt tilla pullik” kabi o‘lchov birligi leksemalaridan foydalanilgan. Bunday bir millatga mansub bo‘lgan o‘lchov birligi leksemalari muallif tomonidan juda aniq qilib tasvirlanganki, bu leksemalardan o‘zbek kitobxonni nafaqat o‘lchovni tushunadi, balki ko‘z o‘ngida tasavvur ham eta oladi.

